SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№7 (3) 2023

# ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

# АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

# ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SCP1342V3I7Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 7 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

**Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

***МУНДАРИЖА***

**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

*Usmonov Axrorjon Rustamjon oʻgʻli*
AMALIY SAN’AT BILAN BOGʻLIQ NOMODDIY MADANIY MEROSLAR ........ 9-15

*Зоҳидов Қобилжон Тоиржонович*
ИЛК АРАБ-МУСУЛМОН ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДА МАДИНА ШАҲРИНИНГ ЎРНИ ........ 16-20

*Siddiqov Mirshod Baxtiyorovich*
SOVET HOKIMIYATINING QORAQALPOGʻISTON ASSRDA IJTIMOIY TA’MINOT SIYOSATI ........ 21-26

*Хайназаров Бахромжон Бахтиёрович*
КАСПИЙОРТИ ВИЛОЯТИДА ТУБ БЎЛМАГАН АҲОЛИ ЭҲТИЁЖЛАРИ УЧУН ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ЖОРИЙ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ) ........ 27-32

*Мансуров Музаффаржон Шарифжон ўғли*
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЙИЛЛАРИДА МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ТУРИЗМ ТАРҒИБОТИДА ТУТГАН ЎРНИ ........ 33-41

*Bobodustov Bobur Mirzaboyevich*
ZARAFSHON DARYOSIDAGI SUV AYIRGʻICH TIZIMLARINI TA’MIRLASHGA ROSSIYA IMPERIYASI MA’MURIYATINING MUNOSABATI ........ 42-47

*Саидбобоева Гулзора Нематжоновна*
XX АСРНИНГ 30–50-ЙИЛЛАР ДАВРИЙ МАТБУОТ МАТЕРИАЛЛАРИ – РЕСПУБЛИКАНИ ЭЛЕКТРЛАШТИРИШГА ОИД МАНБА ........ 48-55

**08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

*Казаков Олим Сабирович*
ЕТАКЧИЛИК ТАЪСИРИДА БОШҚАРУВНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ........ 56-60

*Utkirov Abbos Meyliyevich*
CHALLENGES IN IMPLEMENTING TQM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ........ 61-67

*Umronov Eldorbek Sodirovich*
TURISTIK KORXONALAR DOIRASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI ........ 68-76

*Норбоев Аллаёр Исмоилович, Тулкинов Гайрат Кадирович*
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И НАПРАВЛЕНИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В РАЗВИТИИ МОЛОДЁЖНОГО ТУРИЗМА ........ 77-82

*Xolmurotov Fozil Saribayevich*
MINTAQADA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA QISHLOQ XOʻJALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRUVCHI SUBYEKTLAR ROʻLINI BAHOLASH ........ 83-91

*Худайназарова Дилором Хайруллаевна*
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ........ 92-100

*Ғойипназаров Санжар Баходирович*
СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИ ЖОРИЙ ЭТИШ НАТИЖАСИДА МЕҲНАТ БОЗОРИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ....................101-110

*Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o‘g‘li*
BANK MENEJMENTI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI ....................111-119

## *09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ*

*Юлдашев Фаррух Абдурахманович*
АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ЭҲТИЁЖ ВА МАНФААТЛАРНИНГ ЎЗАРО УЙҒУНЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ ....................120-126

*Тожибоев Сарвар Пўлатжон ўғли*
ДАВЛАТ ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ....................127-132

*Ismatov Shohruhbek Murod o‘g‘li*
YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY DAVLAT BARPO ETISH VA UNING G‘OYAVIY MAFKURAGA ASOSLARI ....................133-137

*Abdullayev Temur Bobir o‘g‘li*
TIL VA TAFAKKUR DIALEKTIKASINING BILISH JARAYONIDAGI ROLI ....................138-143

*Islamov Kamol Tashkulovich*
UYG‘ONISH DAVRI DUNYOQARASHIDA DINIY VA DUNYOVIY YONDASHUVLAR NISBATI .................... 144-150

## *10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ*

*Isanova Feruza Tulqinovna*
O‘ZBEK TILI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI ....................151-160

*Ro‘ziyev Elbek O‘rol o‘g‘li*
AMIR TEMUR VA TEMURIY HUKMDORLAR YORLIQLARIDA SIYOSIY NUTQ SHAKLLARINING QO‘LLANILISHI ....................161-167

*Мухамедова Феруза Баходир кизи*
ФОРМИРОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ СИСТЕМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ А. КИМА....................168-174

*Abdullayev Ikramjon Xashimdjanovich*
*TILSHUNOSLIKDA SO‘Z VA SO‘Z TURKUMLARI: TADQIQI VA TAVSIFI* ....................175-180

*Tagayeva Sayyora Ulashovna, Inoyatillo Ozoda*
FIZIKA FAKULTETI TALABALARIGA NEMIS TILINI O‘QITISHDA INNOVATSION METODLARNING QO‘LLANILISHI ....................181-185

*Egamberdiyeva Mohidil Gulomjon qizi*
MADANIYATLARARO MULOQOTDA NUTQIY ETIKETNING ANTROPOSENTRIK TADQIQI ....................186-190

## 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР


*Жавлиев Нурали Баходирович*
МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ НИЗОЛАР ТУШУНЧАСИ ВА МАЗМУН-МОҲИЯТИ ......................191-195

*Узакова Гўзал Шариповна*
БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ МАҚСАДЛАРИГА ЭРИШИШДА СУВ РЕСУРСЛАРИДАН ОҚИЛОНА ФОЙДАЛАНИШ (ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ).........................................................196-204

*Usmanov Alisher Tolmasovich*
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA’MURIY HUQUQBUZARLIK TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI YURITISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI: MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR ............205-213

*Авезова Элеонора Парахатовна*
РАВНОЕ ПРАВО ГРАЖДАН НА ПОСТУПЛЕНИЕ В ГОСУДАРСТВЕННУЮ ГРАЖДАНСКУЮ СЛУЖБУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ..........................................................................214-218

*Мукумов Бобур Мелибой угли*
ОЦЕНКА РЕГУЛИРУЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ПРОЕКТОВ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ АКТОВ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ТЕХНОЛОГИЙ БЛОКЧЕЙН. СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ..........................................................................................................219-224

*Туракулова Назира Абдишукуровна*
СТАРТАП ЛОЙИҲАЛАРИНИ ТУЗИШ ВА МОЛИЯЛАШТИРИШ ТАРТИБИ: ДАВЛАТ ВА НОДАВЛАТ НУҚТАИ НАЗАРИДАН ..........................................................................225-232


## 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ


*Хўжамкелдиев Ғафур Султон ўгли*
СПОРТ МАШҒУЛОТЛАРИ ЖАРАЁНЛАРИДА ТИКЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ ................*233-237*

*Aziz Xasanovich Rajabiy*
BO‘LAJAK VOKAL O‘QITUVCHILARINING INTELLEKTUAL-IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH ..........................................................................................238-242

*Malikova Sevar Samatovna*
BO‘LAJAK XOR RAHBARLARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH ..............243-246

*Васильченко Ольга Анатольевна*
ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВЫХ НАВЫКОВ ............................................247-251

*Xojimurodova Mahliyoxon Kenjavoy qizi, Inomov Faxriddin O‘rmonjonovich*
AN INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' MOVEMENT SKILLS AND COMPETENCIES IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES ........................................................252-257

*Асадуллаева Наргиза*
БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ФАОЛ ФУҚАРОЛИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ МУСТАҲКАМЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ЖАРАЁННИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ ..........................................................................258-265

*Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi*
BO‘LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINING PEDAGOGIK MADANIYATI VA KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI ..............................266-272

*O'ktamova Navruza Botir qizi*
BO'LAJAK JURNALISTLARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISH (SIYOSIY-IJTIMOIY MATNLAR MISOLIDA) ........................................ 273-277

*Нумонжонов Шохзодбек Дилшоджон ўғли*
ОЛИЙ ТЕХНИКА ТАЪЛИМИДА МЕҲНАТ МУҲОФАЗАСИ ВА ТЕХНИКА ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ЭЛЕКТРОН МЕТОДИК АСОСЛАРНИНГ ИЛМИЙ АҲАМИЯТИ ........................................ 278-287

*Xuramov Ilxom Panjiyevich*
PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISLOHOTLARNI JADALLASHTIRISH VA KASBIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH ........................................ 288-292

*Azizbek Umarov*
MEDIATA'LIM – TALABALARNING MEDIA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN FAN TARMOG'I SIFATIDA ........................................ 293-299

*Saidova Zilola Gadoymurodovna*
TA'LIM INTEGRATSIYASINING AYRIM MASALALARI ........................................ 300-307

*Raxmonova Gulrux Ulashevna*
O'ZBEK XALQINING MILLIY HARAKATLI O'YINLARIDAN JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI ........................................ 308-312

*Boynazarova Sayyora Ruzikulovna*
BIOLOGIYA O'QITUVCHISI KASBIY KOMPETENSIYALARI VA KOMPETENTLIGINI MONITORING QILISHNING MAVJUD METODIKASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI ........................................ 313-317

*Shermuhammadov Bahodirjon, Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi*
MDH OLIMLARI TOMONIDAN CHET TILLARNI O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN XATOLAR MAVZUSIDA OLIB BORGAN TADQIQOTLAR TAHLILI ........................................ 318-323

*Abdusalimova Nargizaxon Olimjon qizi*
MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB FIZIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI ........................................ 324-329

*Shafiyeva Elnara, Murotmusaev Komiljon Buribaevich*
THE CHARACTERISTICS OF MENTAL HEALTH IN ELDERLY PEOPLE ........................................ 330-349

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 7 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*13.00.00- Педагогика фанлари*

**Umarov Azizbek**
Andijon mashinasozlik instituti tayanch doktoranti

## MEDIATA'LIM – TALABALARNING MEDIA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN FAN TARMOG'I SIFATIDA

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy media atrofdagi dunyoni insoniy oʻzlashtirishning murakkab vosita ekanligi, shuningdek, ta'limni axborotlashtirish sharoitida boʻlgʻusi muhandis-pedagoglarning mediamadaniyatini rivojlantirishning muhim xususiyatlari to'gʻrisidagi fikr mulohaza va tavsiyalar bayon etilgan.
**Kalit so'zlar:** ta'limni axborotlashuvi, mediamadaniyat, mediaresurs, zamonaviy media, elektron media, ta'lim funksiyalari.

**Umarov Azizbek**
Doctoral student of Andijan Mechanical Engineering Institute

## MEDIA EDUCATION AS A SCIENCE NETWORK DIRECTED TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' MEDIA CULTURE

**Abstract.** In this article, opinions and recommendations are presented about the fact that modern media is a complex tool for human assimilation of the surrounding world, as well as important features of the development of media culture of future engineers-pedagogues in the context of educational informatization.
**Keywords:** informatization of education, media culture, media resource, modern media, electronic media, educational functions.

**Умаров Азизбек**
Докторант Андижанского машиностроительного института

## МЕДИАОБРАЗОВАНИЕ КАК НАУЧНАЯ СЕТЬ, НАПРАВЛЕННАЯ НА РАЗВИТИЕ МЕДИАКУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ

**Аннотация.** В данной статье представлены мнения и рекомендации о том, что современные медиа представляют собой комплексный инструмент освоения человеком окружающего мира, а также важные особенности развития медиакультуры будущих инженеров-педагогов в условиях информатизация образования.
**Ключевые слова:** информатизация образования, медиакультура, медиаресурс, современные медиа, электронные медиа, образовательные функции.

DOI: https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I7Y2023N42

**Kirish.** Respublikamizda Oliy ta'limni zamonaviy asosda tashkil etish va bu borada amaldagi Davlat ta'lim standartlarining mazmuniga mediata'limni integrativ ravishda

sindirishga oid islohotlar ko'lami kengayib bormoqda. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirish Davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablar asosida turli fanlar mazmuni orqali, shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda atroflicha yetkazib boriladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, talabalarda mediamadaniyatning rivojlanganligini muhim ko'rsatkichlaridan biri o'zini va o'zgalarni salbiy axborot ta'siridan himoya qila olishi, o'zining axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlay olishi hisoblanadi. Talabalarda mediamadaniyatning rivojlanganligini asosiy mezoni sifatida axborotlarni tanqidiy baholay olishi, media manbalardagi salbiy axborot ta'sirini mantiq, refleksiya, dialog, talqin, shaxsning himoya munosabatlarini shakllantiradigan axborot ta'sirining tasniflarini bilishga tayanish orqali aniqlay olishidir. Tanqidiy fikrlashning himoya funksiyasini amalga oshirish uchun da'vatlovchi kuch – talabaning axborot-psixologik xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojidir va ijtimoiy-madaniy omillar, fikrlash subyektining individual-psixologik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari esa, aqliy faoliyat uchun sharoit yaratishda muhim rol o'ynaydi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Oksford ensiklopediyasida "mediata'lim mediani o'rganishdir". Mediata'lim yaratilayotgan va tarqatilayotgan mediamatnlar bilan bog'langan. Ta'lim oluvchilar mediamatnlarning mazmun-mohiyatiga izoh va baho berish uchun tahlil qila olish qobiliyatini o'zida shakllantiradi. Mediani o'rganish odatda amaliy tarzda, ya'ni mediamatnlar yaratish bilan bog'liq amalga oshiriladi. Mediata'lim mediani o'rganish orqali mediasavodxonlikni oshirishga xizmat qiladi [1].

"Pedagogik qomusiy lug'ati"da esa mediata'lim quyidagicha tariflanadi: "o'rganuvchilarga ommaviy kommunikatsiyani o'rgatuvchi pedagogikaning bir yo'nalishi" [2], YUNESKOning ta'rifi ko'ra "mediata'lim zamonaviy ommaviy axborot vositalari bo'yicha bilimning nazariya va amaliyotini o'rganishdir". [3]

Mediata'lim orqali dunyoning yetakchi mamlakatlari ta'lim sohasining ustuvorligiga erishdi. Bugungi kunda yangi sifatli ta'limga erishish uchun ta'limni axborotlashtirish va o'qitish uslublarini optimallashtirish, ochiq ta'lim texnologiyalaridan faol foydalanishni amalga oshirish zarur. Mediata'lim orqali ma'lum fanlarni o'qitishning dunyodagi eng yaxshi dars namunalari, tayyor kurslar dasturlarini internet tarmog'i orqali o'rganish mumkin. Bu har qanday shaxsning o'z ustida ishlab, o'zi qiziqqan sohani mukammal o'rganishga imkoniyatdir. Mediata'lim orqali dunyo kutubxonalari fondlari, axborot ma'lumotlar bazalari, eksperimental jihozlar, yetakchi laboratoriya va institutlarning ilmiy natijalarining haqiqiy bitmas-tuganmas resurslariga masofadan kirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu dunyo bolalarining deyarli bir xil imkoniyatga egaligini ham ko'rsatib beradi. Mediata'lim jarayonida talabalarda mediasavodxonlikka urg'u beriladi.

Yevropa Ittifoqi hujjatlarida ta'riflanishicha, mediata'lim – (media education) olingan axborot asosida o'z fikrini bildirishga qodir bo'lgan mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalash maqsadida mediaga tanqidiy va o'ylab munosabatda bo'lish sifatida tushunish kerak bo'lgan mediakompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim. Bu fuqarolarga zarur axborotlardan foydalanish, uni tahlil qilish, ular bilan bog'liq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy manfaatlarni identifikatsiya qilish. [4]

Media ta'limning asosiy vazifalari ta'lim oluvchilarni jamiyatdagi axborotlashtirish va raqamlashtirish sharoitida hayotga tayyorlash, turli ma'lumotlarni idrok etish, insonni uni tushunishga o'rgatish, uning psixikaga ta'sirining oqibatlarini anglash, ta'sir qilish usullarini o'zlashtirish va og'zaki bo'lmagan shakllarga asoslangan muloqot texnik vositalaridan

foydalangan holda munosabatga kirishish demakdir. [5]

Olima I.N.Gendina "Shaxsning **mediamadaniyati**, mediasavodxonligidan tashqari, oʻziga xos axborot dunyoqarashiga ega boʻlishi, axborot bilim va koʻnikmalarni egallashda ishonch shakllanishi, axborotlashgan jamiyatda yashovchi individdan muayyan tomonidan qanday maqsadlarga erishish lozimligini anglashi va maʼlumotlardan toʻgʻri foydalanish uchun masʼuliyatni his etishi kabilarni qamrab oladi" [6] degan yakuniy xulosalarini keltirib oʻtadi.

Mediamadaniyat va mediasavodxonlik mediataʼlim asosida shakllanadi hamda rivojlanadi. Media taʼlimning maqsadi – oʻz shaxsiyati va hayotini shakllantirish, rivojlantirish uchun ommaviy axborot vositalarining oʻsib borayotgan turlari haqida tanqidiy fikr yuritish, ulardan oqilona va ehtiyojlariga qarab tanlash qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, ommaviy axborot vositalaridan toʻgʻri, ijodiy va ijtimoiy mas'uliyat bilan foydalanish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan jarayondir.

**Muhokama va natijalar.** Ilmiy tadqiqotlari asosida talaba shaxsining media kompetentligini rivojlantirish uchun maxsus tashkil etiladigan pedagogik sharoitlar zarur. I.V.Grigorevaning fikricha, oliy oʻquv yurtining oʻquv jarayoniga quyidagi tashkiliy-pedagogik shartlarni amalga oshirishda muvaffaqiyatli boʻladi [7]:

– mediataʼlim blokini oliy taʼlim standartlariga kiritish;

– oliy oʻquv yurtining mediataʼlim maydonini sifatli tashkil etish;

– oʻquv rejasidagi fanlar boʻyicha mashgʻulotlarni media tarbiyaviy xarakterdagi mazmun bilan toʻldirish;

– talabalarni faol media faoliyatiga jalb qilish orqali oʻquv rejasi fanlarining mediataʼlim salohiyatini talabalar tomonidan ularni oʻrganish jarayonida izchil amalga oshirish.

YUNESKO tomonidan mediataʼlimni XXI asr pedagogika rivojining ustuvor yoʻnalishi sifatida baholanadi va unga quyidagicha taʼrif berilgan: "Mediataʼlim – medianing barcha turlari (bosma va grafik, ovoz, ekranli va boshqalar) va turli xil texnologiyalar bilan bogʻliq; u odamlarga oʻz jamiyatlarida ommaviy kommunikatsiyadan qanday foydalanilishini tushunish, boshqa odamlar bilan muloqotda mediadan foydalanish koʻnikmalarini egallashga imkon beradi; insonni qanday qilib:

1) mediamatnlarni tahlil qilish, tanqidiy talqin qilish va yaratish;

2) mediamatnlarning manbalarini, ularning kontekstini, ularning siyosiy, ijtimoiy, tijoriy va madaniy manfaatlarini aniqlash;

3) tarqatilayotgan medianing mediamatn va qadriyatlarini tatbiq etish;

4) oʻzlarining shaxsiy mediamatnlarini yaratish, tarqatish va ularga qiziqqan auditoriyani jalb qilish uchun tegishli mediani tanlash;

5) idrok qilish uchun ham, ishlab chiqish uchun ham mediadan erkin foydalanish imkoniyatiga ega boʻlishga yoʻnaltiradi" [8].

Mediamadaniyat – turli media manbalarini tahlil qilish, baholash, yaratish uchun zarur boʻladigan bilim, koʻnikma va malakalar yigʻindisi. Shaxsda media mahsulotlarni oʻz "maʼnaviy filtr"i (mafkuraviy immuniteti) orqali koʻra olishi undan bir qator bilim va koʻnikmalar kerak boʻlishini koʻrsatadi. Media vositalaridagi targʻibot-tashviqotni, biryoqlamalikni va buning sabablarini, maʼlumot tarqatuvchining niyatlarini koʻrib turishadi. Bunday mediamadaniyat mediamahsulotlarga tanqidiy yondashuvni belgilab beradi, aldanishlardan asraydi. [9]

Mediataʻlim jarayonida talabalarda mediasavodxonlikka urgʻu beriladi. Mediamadaniyat – axborotga tanqidiy qarash, xolis yondashish va har bir axborotni saralashda ongli ravishda

yondashishdir. Mediamadaniyat maqsadlari quyidagi koʻrinishda ifoda etiladi:

– ommaviy axborot vositalari orqali beriladigan axborotlarni tushunish, qayta ishlash va keng talqin etishga oʻrgatish;

– ijodiy fikrlashni, u yoki bu xabarning yashirin mazmunini tushunishni, salbiy mazmunli axborotlardagi yoshlarning ongini oʻzgartirishga harakatlariga qarshilik qilishni bilishni rivojlantirish;

– talab etiladigan axborotni topish, tayyorlash, yetkazish va qabul qilish malakasini shakllantirish.

Fikrimizcha, media ta’sirida oladigan ma’lumotni qayta ishlay olish, mantiqiy va analitik tahlil qilib koʻrish, uning yashirin aks ta’sirini anglash koʻnikmalarini rivojlantirish sifatida mediamadaniyat boʻlajak muhandis-pedagoglar uchun sifat hisoblanadi. Boʻlajak muhandis-pedagoglarda mediamadaniyatni rivojlantirish, mediata’lim orqali medianing salbiy ta’sirlarini ilgʻay olish koʻnikmalarini shakllantirish, bu orqali kelgusi kasbiy faoliyatida ta’lim oluvchilarning ham gʻoyaviy aldanishdan saqlash iqtidoriga ega boʻladi. Mediamadaniyatni shakllantirish zaruratini tadqiq etishdan avval axborot savodxonligi, axborot madaniyati, mediata’lim va mediamadaniyat tushunchalarining mazmun mohiyati, lugʻatlarda tariflanishini tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Boʻlgʻusi muhandis-pedagoglarning mediamadniyatini rivojlantirish bilan ularning axborot savodxonligini rivojlantirish uzviy bir jarayondir. Axborot savodxonligi – axborotni tanlash, baholash, qayta ishlash va uzatish borasidagi koʻnikmalar hamda malakalar majmuini bildiradi. Axborot savodxonligi axborotni qabul qilish, uni baholash va axloqiy qoidalarga rioya qilgan holda foydalanish hamda tatbiq etishning muhimligini tavsif etadi. Axborot savodxonligi mediani qabul qilish va uning faoliyatini baholash boʻyicha koʻnikmalar va malakalar majmuini bildiradi. Mediasavodxonlik media funksiyalarini tushunish, mazkur funksiyalarni amalga oshirish sifatini baholash va oʻz-oʻzini ifoda etish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish uchun medialar bilan ratsional hamkorlikka kirishishga urgʻu beradi. Mediasavodxonlik ham axborot savodxonligi ham yoshlarda media va axborot makonida foydalanilayotgan texnologiyalardan qat’iy nazar oʻzaro hamkorlik qilish koʻnikmalarini ongli ravishda shakllantirish va rivojlantirish bilan bogʻliq.

Mamlakatimiz oliy ta’lim tizimi oʻquv dasturlarida alohida fan sifatida “mediamadaniyat” yoki “mediakompetentlik”ga doir fanlar koʻzda tutilmaganligini hisobga olsak, bugungi kunda mediamadaniyatni va uning komponentlarini talaba shaxsida shakllantirish va rivojlantirish uchun istiqbolli ta’lim turlaridan biri – mustaqil ta’lim hisoblanadi.

A.V.Federov mediamateriallarga asoslangan ijodiy vazifalar oʻqitish, moslashish, rivojlantirish va boshqarish funksiyalarini bajarishini ta’kidlab oʻtadi:

– moslashish funksiyasi – bilimlarni boshqa vaziyatlarda qoʻllash qobiliyatini nazarda tutadi;

– oʻquv funksiyasi nazariya va qonunlar, mediamatnlarni idrok etish va tahlil qilish usullari haqidagi bilimlarni oʻzlashtirishga qaratilgan;

– boshqaruv funksiyasi – mediata’limni barcha jarayoni uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratishni koʻzda tutadi;

– rivojlantiruvchi funksiyasi – insonning motivatsion, irodaviy va boshqa xususiyatlari va fazilatlarini, media bilan ijodiy aloqa tajribasini rivojlantirishga qaratilgan[10].

Shuningdek, mediaresurslar vositasida boʻlajak muhandis-pedagoglar mustaqil taʼlimini tashkil etilishi zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli texnologiyalardan foydalanishni zarur ekanligini koʻrsatadi. Bu esa oʻz navbatida talabalarning axborot – media va raqamli hamda kommunikativ, kolloborativ kompetentsiyalarini shakllantirish hamda fanga doir mustaqil taʼlim olishga boʻlgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Talabalar mustaqil taʼlimini mediaresurs vositalari asosida tashkil etishda samaradorlikka erishish uchun quyidagilar taklif etiladi [11] (1-jadval):

**1-jadval**

**Talabalar mustaqil taʼlimini mediaresurs vositalari asosida tashkil etishning samaradorligi**

| | |
|---|---|
| Mediaresursni tanlash | talabalarning psixologik, fiziologik xususiyatlari, axborotlarni qabul qilish, idrok etish va individual shaxs sifatlarini inobatga olgan holda mediaresurslarni toʻgʻri tanlash; |
| Mediaresursni taʼlim tiliga moslash | mediaresurslar vositasida mustaqil taʼlimni tashkil etishda taʼlim kontenti va oʻquv topshiriqlarining talaba tahsil olayotgan taʼlim tiliga mos kelishi. Agar mustaqil taʼlim jarayonida xorijiy tildagi kontentdan foydalanilgan boʻlsa, uning talaba tahsil olayotgan taʼlim tiliga tarjima qilinishi yoki izohining taqdim etilishi; |
| Mustaqil taʼlimga tatbiq etish | mustaqil taʼlim jarayoniga mediaresurslar vositasida geymifikatsiya (oʻyin orqali oʻrgatish) elementlarini joriy etilishi; |
| Ijodiy faoliyatga yoʻnaltirish | mustaqil taʼlim jarayonida talabalarning amaliy, ijodiy faoliyatga yoʻnaltirilganligini taʼminlash. |

Bugungi kunda turli axborotlar bilan tanishish, ulardan oʻzlarining ijtimoiy (kasbiy va kundalik) faoliyatida foydalanish oddiy hodisa sanaladi [12]. Medianing shaxs hayotidagi oʻrni va roli quyidagilarda namoyon boʻladi:

– axborot olish manbai;
– muloqot va kommunikatsiya;
– axborotni uzatish va tarqatish;
– oʻz-oʻzini rivojlantirish, shaxsiy rivojlanish;
– taʼlim va tarbiya;
– dam olish, hordiq chiqarish, ijtimoiy muloqot;
– kundalik hayotda, shaxsiy yoki kasbiy faoliyatda qoʼllash;
– qobiliyat, isteʼdodni shakllantirish va rivojlantirish;
– shaxsiy va kasbiy-pedagogik faoliyatda qoʼllash;
– gʻoyalarni shakllantirish va targʻib qilish;
– xulosa chiqarish, qaror qabul qilish;
– shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish, meʼyorlarga rioya qilish;
– kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish.

Bugungi axborotlashgan jamiyatda internet tarmogʻi yordamida turli sahifalardan, jumladan, Youtube, Mytube, Facebook, Telegram, Instagram, WhatsApp, Twitter kabi axborot uzatish vositalaridan olinayotgan turli xil koʻrinishdagi axborotlarni yopish va taqiqlash, uzatilayotgan turli syujetlarni chegaralashning imkoniyati kamroq boʻlganligi sababli, katta

sahnada – Mediata’lim tushunchasining paydo bo‘lishi, uning kelajakda ta’lim sohasida rivojlanishi imkoniyatlarini yanada orttirib yuboradi [13].

**Xulosa.** Mediata’limning asosiy tamoyillari va metodlari bo‘lajak muhandis-pedagoglarning intellektual va ijodiy qobiliyatini yuksaltirishga, ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga, kognitiv jarayonlarini va o‘z-o‘zini anglashga qaratilganini inobatga olgan holda, mediaresurslar vositasida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasi quyidagi qator imkoniyatlarni taqdim etadi:

– har bir ta’lim oluvchi uchun moslashuvchan ta’lim olish tempi;

– axborotni idrok etish kanallarini inobatga oluvchi mediaresurslar shaklidagi o‘quv kontentidan foydalanish;

– mustaqil ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarning faol ishtirokini ta’minlash;

– ta’lim jarayoniga kompetentsiyaviy yondashish;

– zamonaviy mediatexnologiyalar, mediaresurslar orqali ta’lim olish va ta’lim berish amaliyotining samaradorligini oshirish, uni yangi sifat bosqichiga olib chiqilishiga erishish.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. Buvabaevna K.Y. Legal basis of formation of civic culture in students kadirova yakitjan uvabaevna: legal basis of formation of civic culture in students // Journal of Information Computational Science. – 2021. – №. 1.
2. Buckingham D. Media education: a global strategy for development. A policy paper prepared for UNESCO, sector of communication and information. Online:https://www.lmz-bw.de/fileadmin/user_upload/Medienbildung_MCO/fileadminbibliothek/buckingham_media-education/buckingham_media-education.pdf 2001. – P. 2.
3. Dorr A. Media Literacy. In: International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences. Vol. 14 / Eds.N.J.Smelser & P.B.Baltes. Oxford, 2001. – Pp. 9494 -9495.
4. https://digital-strategy.ec.europa.eu/en/policies/media-literacy
5. Бабаджанов С.С. Педагогика олий таълим муассасалари талабаларининг медиакомпетентлигини ривожлантириш технологияси (“Информатика ва ахборот технологиялари” ўқув фани мисолида): п.ф.б.ф.д (PhD) диссер....Тошкент, 2018. – Б. 36-37.
6. Педагогический энциклопедический словарь / Гл. ред. Б.М.Бим-Бад; Редкол.: М.М.Безруких, В.А.Болотов, Л.С. Глебова и др. – М.: Большая Рос. энцикл., 2002. – С. 138.
7. UNESCO [Recommendations Addressed to the United Nations Educational Scientific and Cultural Organization UNESCO. In:Education for the Media and the Digital Age. Vienna: UNESCO, 1999. – P. 273-274. Reprint in: utlooks on Children and Media. Goteborg: UNESCO & NORDICOM, 2001. – P.152.
8. Медиакультура и образование: особенности взаимодействия и развития. – // https://topuch.ru/referat-mediakuletura-i-sovremennoe-obshestvo/index.html.
9. Гендина Н.И. Информационная грамотность и информационная культура личности: международный и российский подходы к решению проблемы // Проблемы образования. – №5–2007. – С. 58-69; Формирование информационной культуры

личности: теоретическое обоснование и моделирование содержания учебной дисциплины / Н.И.Гендина, Н.И.Колкова, Г.А.Стародубова, Ю.В.Уленко. – М.: Межрегиональный центр библиотечного сотрудничества, 2006. – 512 с.; Медиа и информационная грамотность в обществах знания / Сост. Кузьмин Е.И., Паршакова А.В. – М.: МЦБС, 2013. – 384 с.

10. Федоров А.В. Медиаобразование: история, теория и методика. – Ростов н/Д.: ЦВВР, 2001. – С. 19.
11. Челышева И.В. Теория, методика и практика развития медиакомпетентности современного педагога: монография / И. В.Челышева. – Москва, Берлин: Директ-Медиа, 2019. – 149 с.
12. Федоров А.В. Медиаобразование: история, теория и методика. – Ростов н/Д.: ЦВВР, 2001. – С. 65.
13. Умарова З. Мустақил таълим жараёнида медиаресурсларнинг аҳамияти / Замонавий таълим/ Современное образование, 2021, 6 (103). – 18-23-б.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SCP1342V3I7Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 7 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).